

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Avgust №8, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautes Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 551-sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 28-avgustda
ruxsat etildi.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

ULUG'BEK NURULLAYEV

Tomorqa xo'jaliklari faoliyatidan olingan daromadga noqishloq xo'jaligi faoliyati ta'sirini iqtisodiy baholash.....8

RO'ZMAMATOV ABBOS TOLIBJON O'G'LI

O'zbekistonda chakana savdo tarmog'ining tarkibiy o'zgarishlari va savdo xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari.....17

АЙТМУРАТОВА УЛБИКЕ ЖАЛГАСОВНА

Развитие методических подходов к комплексной оценке эффективности привлечения финансирования акционерными обществами через рынок капитала.....26

BAXRONOVA NILUFAR SUNNAT QIZI

Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot integratsiyasining innovatsion iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlari.....36

KARAMATOVA NOIBA HUSNITDINOVNA

Korxonada ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish yo'nalishlari.....44

VEI ZHIBO

Madaniy meros turizmida raqamli kommunikatsiya, jamoatchilik ishtiroki va inklyuziv o'sish – Samarqand misolida.....53

ISMIGUL ABDULLAYEVA

Improving data management systems of small and medium enterprises through cloud technologies in the digital economy.....65

ABDURAYIMOV KAMOLIDDIN XURRAM O'G'LI

Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligining amaldagi iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....70

KABILOVA SHAHNOZA JURAYEVNA, XALIMOV JAVLON

SHAXRIYOROVICH

Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: hududiy differensiatsiya tahlili (Qashqadaryo viloyati misolida).....80

UMAROVA SHAXLO ABDUVALIYEVNA

Strategik moliyaviy hisob tizimini tashkil etishning konseptual yondashuvlari va tarkibiy elementlari.....87

HOU MANPING, CUI HUIFANG

Lessons from China for ecological protection and restoration of the Aral sea basin.....102

SHADMANOV ZUHRIDDIN ZOKIRXODJAYEVICH

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishini baholash.....113

BADALOVA NIGORA NORKULOVNA

Davlat boshqaruvini raqamlashtirishning xorijiy modellari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....126





ZHU YU MING

The collaborative logic of digital transformation of China's tourism infrastructure.....137

ИСАЕВА АЙЖАН

Цифровая трансформация туризма как механизм структурной диверсификации сферы услуг.....152

KARIMOVA MAFTUNA NURDINOVNA

“Yashil” qo‘shilgan qiymat: organik, halol va karbon-neytral sertifikatlarining O‘zbekiston mahsulotlari narxiga ta’siri.....166

XABIBULLAYEV ANVAR SHOVIKAT O‘G‘LI

Zamonaviy boshqaruv modellari asosida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish.....177

SAPAYEV SINDOR QADAMBOY O‘G‘LI

Mintaqaviy innovatsion infratuzilma subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik rivojlanishi: qiyosiy tahlili.....185

SAIDOVA DILDORA NURMATOVNA

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida oziq-ovqat xavfsizligining ta‘minlanishi.....194

UMAROV AZIZJON AZAMJON O‘G‘LI

Risklarning kichik biznes korxonalariga iqtisodiy ta’siri.....201

AZAMQULOV NURBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati hamda bug‘doy yetishtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....207

BAXTIYAROVA SABOHAT BAXTIYAROVNA

Raqamli transformatsiya sharoitida rahbarlarning strategik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish.....214

BOZOROVA MUXABBAT TO‘XTAYEVNA

Davr xarajatlari hisobini takomillashtirish.....221

DJURAYEV OLIMJON NARKULOVICH

Xizmatlar iqtisodiyotida mehnatni ratsional tashkil etishning zamonaviy konsepsiyalari va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlari.....230

KURBONOV BAXODIR ERGASHEVICH

Transfert narxlarning iqtisodiy mohiyati va ularni shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslari.....243

FAXRIDDINOV ABDULHAKIM ZIYAUDDINOVICH

Yangi O‘zbekistonda sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish istiqbollari.....249

OMONQULOV BEKZOD TURSUNALI O‘G‘LI

Kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari.....256

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoatida investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning xorijiy modellari va ularni o‘zbekiston amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari.....267

TURDIQULOV FARRUX RAVSHANJON O‘G‘LI

O‘zbekistonda kichik biznesning bandlik va YAIMdagi ulushlari nomutanosibli: milliy va hududiy statistik tahlili.....277





YANGI O'ZBEKISTONDA SABZAVOTCHILIK TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

FAXRIDDINOV ABDULHAKIM ZIYAUDDINOVICH

Toshkent davlat agrar universiteti

Agroiqtisodiyot kafedrası asistenta

E-mail: abdulhakim.uz90@gmail.com

ORCID: 0009-0006-7422-2396

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish istiqbollari, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni hamda eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Unda sabzavot ekinlari hosildorligini ko'paytirish, urug'chilikni rivojlantirish, intensiv va suv tejankor texnologiyalarni joriy etish, issiqxona xo'jaliklari hamda agroklastlar faoliyatini kengaytirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada innovatsion rivojlanish asosida sabzavotchilik sohasining samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, sabzavotchilik, sabzavot ekinlari, urug'chilik, oziq-ovqat xavfsizligi, intensiv texnologiyalar, issiqxona xo'jaligi, hosildorlik, eksport salohiyati, agroklastlar, suv tejankor texnologiyalar, innovatsion rivojlanish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются перспективы развития сектора овощеводства в Новом Узбекистане, его роль в обеспечении продовольственной безопасности и возможности повышения экспортного потенциала. В работе анализируются вопросы, связанные с повышением продуктивности овощных культур, развитием семеноводства, внедрением интенсивных и водосберегающих технологий, расширением деятельности тепличных хозяйств и агрокластеров. В статье выдвигаются научно-практические предложения, направленные на повышение эффективности сектора овощеводства на основе инновационного развития.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, овощеводство, овощные культуры, семеноводство, продовольственная безопасность, интенсивные технологии, тепличное хозяйство, производительность, экспортный потенциал, агрокластер, водосберегающие технологии, инновационное развитие.

Abstract. This article examines the prospects for the development of the vegetable-growing sector in New Uzbekistan, its role in ensuring food security, and opportunities for increasing export potential. The paper analyzes issues related to increasing the productivity of vegetable crops, developing seed production, introducing intensive and water-saving technologies, and expanding the activities of greenhouse farms and agroclusters. The article puts forward scientific and practical proposals aimed at improving the efficiency of the vegetable-growing sector on the basis of innovative development.

Keywords: New Uzbekistan, vegetable growing, vegetable crops, seed production, food security, intensive technologies, greenhouse farming, productivity, export potential, agrocluster, water-saving technologies, innovative development.

KIRISH

Yangi O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va aholining sifatli sabzavot mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Sabzavotchilik tarmog'i ichki bozor barqarorligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish, qishloq hududlarida bandlikni kengaytirish va aholi daromadlarini ko'paytirishda alohida ahamiyatga ega.





Sabzavotchilikni barqaror rivojlantirishda sabzavot ekinlari urug'chiligi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki hosildorlik, mahsulot sifati, kasallik va zararkunandalarga chidamlilik, saqlanuvchanlik hamda eksportboplik darajasi, avvalo, sifatli urug'lik materialiga bog'liq. Shu bois mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga mos, serhosil, ertapishar va yuqori sifatli nav hamda duragaylarni yaratish, ko'paytirish va ishlab chiqarishga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-21-son Farmonda strategik rejalashtirish hujjatlarini yangilash va "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida agrar sohada oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda eksport hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu vazifalar sabzavot ekinlari urug'chiligini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir. Sifatli urug'lik bazasini shakllantirish orqali sabzavot ekinlari hosildorligini oshirish, suv tejamkor texnologiyalar sharoitiga mos navlardan foydalanish, mahsulot tannarxini kamaytirish va raqobatbardosh sabzavot mahsulotlari yetishtirish imkoniyati kengayadi[1].

Bugungi kunda iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi va xalqaro bozorlarda raqobatning kuchayishi sabzavot ekinlari urug'chiligini ilmiy asosda takomillashtirish zaruratini oshirmoqda. Shuning uchun urug'lik materiallarini sertifikatlash, nav tozaligini saqlash, seleksiya ishlarini kuchaytirish, zamonaviy issiqxona xo'jaliklari va agroklasterlar bilan hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Yangi O'zbekistonda sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish, eng avvalo, sifatli urug'chilik tizimini shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu maqolada sabzavot ekinlari urug'chiligini rivojlantirish, intensiv texnologiyalar, suv tejamkor sug'orish usullari, issiqxona xo'jaligi va agroklasterlar asosida sabzavotchilik samaradorligini oshirish istiqbollari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yangi O'zbekistonda sabzavotchilik tarmog'ini, xususan, sabzavot ekinlari urug'chiligini rivojlantirish masalasi mamlakatda olib borilayotgan agrar islohotlar bilan bevosita bog'liqdir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi" da va 2026-yil PF-21-son Farmonida strategik rejalashtirish hujjatlarini yangilash va "O'zbekiston-2030" maqsadlariga erishish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilanishi ko'rsatilgan[1, 2]. Bunda agrar sohada suv tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini





oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda eksport hajmini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa sabzavot ekinlari urug'chiligida suv tanqisligiga chidamli, kasalliklarga bardoshli, yuqori hosildor va eksport talablariga mos nav hamda duragaylarni yaratishni dolzarb vazifa sifatida belgilaydi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda sabzavotchilik va urug'chilik tizimi oziq-ovqat xavfsizligining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. FAO tadqiqotlarida urug'lik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining boshlang'ich manbai ekani, sifatli urug'lik fermer xo'jaliklarining hosildorligi, daromadi va barqaror oziq-ovqat ta'minotiga bevosita ta'sir qilishi ta'kidlanadi. Bu yondashuv sabzavot ekinlari urug'chiligini rivojlantirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash mumkinligini ko'rsatadi [3].

Raymond A.T. George o'zining sabzavot urug'chiligi bo'yicha tadqiqotlarida sabzavot mahsulotlari yetishtirishda sifatli urug'lik ta'minoti hal qiluvchi omil ekanini asoslaydi. Uning fikricha, sabzavot yetishtirish hajmi, mahsulot sifati va ishlab chiqarish barqarorligi ko'p jihatdan urug'likning fiziologik sifati, nav tozaligi, unuvchanligi va saqlanish xususiyatlariga bog'liq[4]. Bu qarashlar O'zbekiston sharoitida ham muhim ahamiyatga ega, chunki sabzavotchilikda yuqori hosil olish uchun urug'lik sifati birinchi darajali omil hisoblanadi.

MDH mamlakatlari olimlari tadqiqotlarida sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim ilmiy-amaliy yo'nalishi sifatida o'rganilgan. N.I. Vavilovning madaniy o'simliklarning kelib chiqish markazlari haqidagi ta'limoti seleksiya va urug'chilik fanining nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Uning ilmiy merosi sabzavot ekinlari genetik xilma-xilligini o'rganish, boshlang'ich seleksiya materiallarini tanlash va mahalliy sharoitga mos navlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega [5].

V.F. Pivovarov, A.V. Soldatenko, O.N. Pyshnaya kabi olimlar sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug'chiligini innovatsion rivojlantirish, ekologik seleksiya, kasalliklarga chidamli navlarni yaratish, genetik resurslardan samarali foydalanish masalalarini tadqiq etgan. Ularning ishlarida sabzavot ekinlarining mahsuldorligini oshirish, sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va urug'chilik tizimini ilmiy asosda tashkil etish zarurligi keng yoritilgan[6].

O'zbekiston olimlari tomonidan sabzavotchilik, polizchilik, kartoshkachilik, seleksiya va urug'chilik yo'nalishlarida muhim ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilgan. X.Ch.Bo'riyevning "Sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi" yo'nalishidagi ishlari sabzavot ekinlarining biologik xususiyatlari, nav yaratish, urug'lik yetishtirish va urug'chilik tizimini tashkil etish masalalarini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi[7].

X.Egamovning qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi, urug'chiligi va aprobatsiyasiga oid ilmiy-uslubiy ishlari ham ushbu mavzu uchun muhim ahamiyatga ega. Unda ekinlarning iqtisodiyotdagi o'rni, seleksiya usullari, boshlang'ich material, navlarni baholash, urug'lik yetishtirish va aprobatsiya o'tkazish tartibi yoritilgan[8]. Bu jihatlar sabzavot ekinlari urug'chiligini ilmiy asosda rivojlantirishda nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.





Tahlil qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, xorijiy, MDH va mahalliy olimlar tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekistonda sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishda sabzavot ekinlari urug'chiligi asosiy strategik omillardan biri hisoblanadi. Sifatli urug'lik bazasini shakllantirish orqali hosildorlikni oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, suv tejamkor texnologiyalar sharoitiga mos navlardan foydalanish, eksportbop mahsulot yetishtirish va agrar sohada innovatsion rivojlanishga erishish mumkin. Shu bois sabzavot ekinlari urug'chiligini rivojlantirish "O'zbekiston-2030" strategiyasi maqsadlari bilan bevosita uyg'un bo'lib, sohaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Yangi O'zbekistonda sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish, xususan, sabzavot ekinlari urug'chiligini takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini "O'zbekiston-2030" strategiyasi, qishloq xo'jaligini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha davlat siyosati hamda sabzavotchilik va urug'chilik sohasidagi ilmiy manbalar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Tizimli tahlil orqali sabzavotchilik tarmog'i va urug'chilik tizimi o'zaro bog'liq jarayon sifatida ko'rib chiqildi. Taqqoslash usuli asosida xorijiy, MDH va mahalliy olimlarning sabzavot ekinlari urug'chiligi, seleksiya va agrar innovatsiyalar bo'yicha ilmiy qarashlari o'rganildi.

Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili orqali sabzavotchilikda suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, eksport salohiyatini oshirish va sifatli urug'lik bazasini shakllantirishning strategik ahamiyati asoslandi. Tadqiqot natijasida sabzavot ekinlari urug'chiligini rivojlantirish hosildorlikni oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va sabzavotchilik tarmog'ining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil ekani aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekistonda sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishda sabzavot ekinlari urug'chiligi muhim strategik omillardan biri hisoblanadi. Sifatli urug'likdan foydalanish ekinlarning unib chiqishi, hosildorligi, mahsulot sifati, kasalliklarga chidamliligi va eksportboplik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli sabzavotchilikni rivojlantirishda urug'chilik tizimini takomillashtirish, mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga mos nav va duragaylarni yaratish hamda suv tejamkor texnologiyalarga mos navlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda sabzavot yetishtirish bo'yicha ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat.



1-jadval

O'zbekistonda sabzavot yetishtirish bo'yicha ko'rsatkichlari[10]

Yil	Sabzavot yetishtirish hajmi, ming tonna	O'tgan yilga nisbatan o'zgarishi, % da
2022	11163,0	100,0
2023	11555,7	103,5
2024	11994,8	103,8
2025	13722,8	114,4

Ushbu ko'rsatkichlar orqali muallif tomonidan 2030 yilgacha prognoz ishlab chiqildi.

2-jadval

O'zbekistonda sabzavot yetishtirish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari[11]

Yil	Sabzavot yetishtirish hajmi, ming tonna	O'tgan yilga nisbatan o'zgarish prognozi, % da	Ko'rsatkich holati
2026	14 576,1	106,2	6,2 % o'sish
2027	15 429,3	105,9	5,9 % o'sish
2028	16 282,6	105,5	5,5 % o'sish
2029	17 135,9	105,2	5,2 % o'sish
2030	17 989,1	105,0	5,0 % o'sish

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-jadvaldan ko'rinadiki, mazkur ko'rsatkichlar asosida chiziqli trend usulida amalga oshirilgan prognozlarga ko'ra, sabzavot yetishtirish hajmi 2026-yilda 14576,1 ming tonna, 2027-yilda 15429,3 ming tonna, 2028-yilda 16282,6 ming tonna, 2029-yilda 17135,9 ming tonna, 2030-yilda esa 17989,1 ming tonnaga yetishi mumkin. Bu esa mamlakatda sabzavotchilik tarmog'ining barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq, bu ko'rsatkich rasmiy reja emas, balki mavjud statistik o'sish sur'ati asosida ishlab chiqilgan muallif prognozi hisoblanadi.

3-jadval

Sabzavot ekinlari urug'chiligini rivojlantirishning ilmiy-amaliy natijalari[11]

Yo'nalish	Asosiy muammo	Ilmiy-amaliy yechim	Kutilayotgan natija
Urug'lik sifati	Sifatsiz yoki moslashmagan urug'lardan foydalanish holatlari mavjud	Sertifikatlangan, yuqori unuvchan urug'lardan foydalanish	Hosildorlik va mahsulot sifati oshadi
Mahalliy navlar	Ayrim ekinlarda import urug'larga qaramlik mavjud	Mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga mos nav va duragaylar yaratish	Urug'lik xarajatlari kamayadi, moslashuvchanlik ortadi
Suv tanqisligi	Suv resurslaridan foydalanish samaradorligi yetarli emas	Suv tejankor texnologiyalarga mos navlarni tanlash	Suv sarfi kamayadi, hosil barqarorligi ta'minlanadi
Eksport salohiyati	Mahsulot sifati va saqlanuvchanligi har doim ham eksport talabiga mos emas	Saqlash va tashishga chidamli, eksportbop navlardan foydalanish	Raqobatbardosh mahsulot hajmi oshadi
Ilm-fan va ishlab chiqarish	Ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish sust	Ilmiy muassasalar, urug'chilik xo'jaliklari va agroklastlar hamkorligini kuchaytirish	Innovatsion urug'chilik tizimi shakllanadi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sabzavot ekinlari urug'chiligi sabzavotchilik tarmog'ining boshlang'ich va eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. Sifatli urug'lik bazasini shakllantirish orqali hosildorlikni oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va eksportbop sabzavot mahsulotlari yetishtirish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, prognoz natijalarini mutlaq aniq ko'rsatkich sifatida emas, balki ilmiy hisob-kitob asosidagi ehtimoliy rivojlanish yo'nalishi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Chunki sabzavotchilik hajmiga iqlim sharoiti, suv ta'minoti, urug'lik sifati, agrotekhnologiyalar, bozor talabi va eksport imkoniyatlari kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Yangi O'zbekistonda sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, eksport salohiyatini oshirish va qishloq xo'jaligida innovatsion rivojlanishga erishishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur tarmoqning barqaror rivojlanishi, avvalo, sabzavot ekinlari urug'chiligi tizimining takomillashuviga bog'liq. Sifatli urug'lik materiallaridan foydalanish sabzavot ekinlarining hosildorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, kasallik va zararkunandalarga chidamliligini kuchaytirish hamda eksportbop mahsulot yetishtirish imkoniyatini kengaytiradi. Shu sababli mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga mos, serhosil, ertapishar, suv tanqisligiga chidamli va saqlashga yaroqli nav hamda duragaylarni yaratish sabzavotchilikni rivojlantirishning asosiy ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

"O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida belgilangan oziq-ovqat xavfsizligi, suv tejankor texnologiyalarni joriy etish, eksport hajmini oshirish va innovatsion rivojlanish vazifalari sabzavotchilik tarmog'i bilan bevosita bog'liqdir. Bu vazifalarni samarali amalga oshirish uchun urug'chilik tizimini sertifikatlash, nav tozaligini saqlash, ilmiy-tadqiqot muassasalari va ishlab chiqaruvchilar hamkorligini kuchaytirish, agroklastlar faoliyatini kengaytirish hamda zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish zarur. Umuman olganda, sabzavot ekinlari urug'chiligini rivojlantirish Yangi O'zbekistonda sabzavotchilik tarmog'ining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Bu esa hosildorlikni oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, eksport salohiyatini kengaytirish va agrar sohada iqtisodiy samaradorlikka erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4567334>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni. "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor





yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-8050769>

3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-fevraldagi O'RQ-521-son Qonuni. "Urug'chilik to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4202718>

4. Food and Agriculture Organization of the United Nations. Seeds: Seed systems and quality seeds. Rome: FAO. <https://www.fao.org/seeds/en>

5. George R.A.T. Vegetable Seed Production. 3rd ed. Wallingford: CABI Publishing, 2009. 320
<https://books.google.com/books/about/Vegetable Seed Production.html?id=nWilRHvRiFIC>

6. Vavilov N.I. The Centers of Origin of Cultivated Plants. Leningrad: Institute of Applied Botany and Plant Breeding, 1926
https://herba.msu.ru/shipunov/school/univ_110/papers/vavilov1926_centers_of_origin_of_cultivated_plants.pdf

7. Pivovarov V.F., Soldatenko A.V., Pyshnaya O.N., Gurkina L.K. Selection and seed production of vegetable crops — on an innovative path of development. Vegetable Crops of Russia, 2020.
<https://www.vegetables.su/jour/article/view/2108>

8. Bo'riyev X.Ch., Ergashev T. Sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi. Toshkent: Mehnat, 1999. 295 b. <https://akbt.urdu.uz/uz/books/7211>

9. Egamov X. Qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi, urug'chiligi va aprobatsiyasi. O'quv qo'llanma. 249 b
<https://lib.jdpu.uz/storage/uploads/files/Qishloq%20xo%27jalik%20ekinlari%20seleksiyasi%20urugchiligi%20va%20aprobatsiyasi.pdf>

10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. URL: <https://stat.uz>.

11. Muallif ishlanmasi.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**